



**QASHQADARYO VILOYATI
G'UZOR TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I**

O'zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, G'uzor shahri, Mustaqillik ko'chasi, 14-uy. Tel: 75.552-13-60

2021 - yil 14 - oktabr

262-4-56-Q/21

G'uzor tuman hokimligi

Qashqadaryo viloyati hokimining 2021-yil 25-iyundagi "Qashqadaryo viloyatida 2021-2022-o'quv yilida matematika, kimyo-biologiya, informatika va axborot texnologiyalari, fizika fanlarini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablarni tashkil etish to'g'risida"gi 285-4-0-Q/21-sonli qarori to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4708-sonli, 2020-yil 12-avgustdagi "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4805-sonli, 2020-yil 6-oktyabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4851-sonli, 2021-yil 19-martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5032-sonli qarorlari hamda Viloyat hokimining 2021-yil 25-iyundagi 285-4-0-Q/21 qaroriga asosan **tumanda 2021-2022-o'quv yilida matematika, informatika va axborot texnologiyalari, fanlarini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablarni tashkil etish to'g'risida** O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6- va 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2021-yil 17-martdagi 02-02/6-817-sonli xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Xalq ta'limi bo'limi mudiri (R.Eshqobilova)ning:

G'uzor tumanidagi 14-sonli umumta'lim maktabini informatika va axborot texnologiyalariga;

3. Tuman Xalq ta'limi bo'limi mudiri (R.Eshqobilova) yangi tashkil etiladigan ixtisoslashtirilgan maktablarning faoliyatini baholash;

yangi tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan maktablarga zamonaviy pedagogik metodikalar va texnologiyalarni egallagan malakali, tajribali, oliy va birinchi toifali pedagog kadrlarni jalb etish;

maktabda davlat ta'lim standartlari talablari asosida chuqur ta'lim tayyorgarligini oshirish;

o'quvchilarning ijodiy salohiyatini namoyon qilish va faollashtirish;

har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil tadqiqotchilik faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish;

professional dastur ta'limlarini ongli tanlash va keyinchalik o'zlashtirish uchun asos yaratish ishlarini amalga oshirsin.

4. Tuman moliya bo'limi mudiri (Sh.Xurramov) maktablar uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan o'z nomi davlat tilida yozilgan dumaloq muhr va burchak shtamplarini olish, ularni belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazish choralari ko'rsin.

5. Davlat kadastrlari palatasi tuman bo'limi (B.Hasanov) bir hafta muddatda amaldagi qonunchilik talablari asosida tashkil etilayotgan ta'lim muassasasiga binoning kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish vazifasi topshirilsin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati (X.Yuldashev), Xalq ta'limi bo'limi mudiri (R.Eshqobilova) bilan birgalikda mazkur qarorning mazmun-mohiyatini ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta'minlasin.

7. Tuman Ichki ishlar bo'limi boshlig'i (Z.Tursunov) tumanda tashkil etilayotgan ixtisoslashtirilgan maktablarni dumaloq muhri va shtamplarini o'rnatilgan tartibda almashtirib berishga amaliy yordam ko'rsatsin.

8. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari M.Panjjiyev va tuman Xalq ta'limi bo'limi mudiri R.Eshqobilovalar zimmasiga yuklansin.

Туман ҳокими



Б.Суюнов